

## KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH: O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Abdibositova Muxlisa Latoyibxonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

E-mail: abdibositovamuhlisa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14134271>

**Annotasiya:** Ushbu tezisda kichik va o'rtalagi biznes, uning rivojlanishida bank investitsiyalarning o'rni, kichik va o'rtalagi biznesning O'zbekistondagi hozirgi kundagi holati va mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston-2030 strategiyasi, kichik va o'rtalagi biznes (KOB), investitsion faoliyat, iqtisodiy o'sish, diversifikatsiya, ish o'rnlari, innovatsiyalar, eksport, investitsion muhit, moliyaviy resurslar, birokratik to'siqlar, tadbirkorlik mahorati.

**Аннотация:** В данном тезисе рассмотрены вопросы развития малого и среднего бизнеса (МСБ) в Узбекистане, роль банковских инвестиций в этом процессе, а также текущее состояние МСБ в стране и его значение для развития узбекской экономики.

**Ключевые слова:** стратегия "Узбекистан-2030", малый и средний бизнес (МСБ), инвестиционная активность, экономический рост, диверсификация, рабочие места, инновации, экспорт, инвестиционный климат, финансовые ресурсы, бюрократические барьеры, предпринимательские навыки.

**Annotation:** This thesis examines the development of small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan, the role of bank investments in this process, as well as the current state of SMEs in the country and their significance for the development of the Uzbek economy.

**Keywords:** Uzbekistan-2030 Strategy, small and medium-sized enterprises (SMEs), investment activity, economic growth, diversification, jobs, innovations, export, investment climate, financial resources, bureaucratic obstacles, entrepreneurial skills.

2023-yilning 11-sentabr kuni Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Farmoniga asosan tasdiqlandi.qabul qilindi. . Ushbu strategiya 5 bo'limdan iborat bo'lib, 100 ta strategik vazifalarni o'z ichiga olgan. Strategiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlar o'tkazish orqali O'zbekistonni zamonaviy va farovon yurtga aylantirish hisoblanadi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.
- iqtisodiyotni liberallashtirish
- xorijiy sarmoyalarni jalb qilish
- davlat boshqaruvi va qonun ustuvorligini takomillashtirish

infratuzilmani modernizatsiya qilish<sup>1</sup>

➤ innovatsion va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirishdan iborat.

Strategiya shuningdek, ijtimoiy rivojlanishga, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lif va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish.

Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish. Umumiyligi qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish. Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish. Pay va vechur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish. 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini "Xalq IPO"sigaga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish. Chet elliq nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish. Barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo'l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda investitsiyalarga katta e'tibor qaratmoqda. Jahan tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotiga ko'proq investitsiya jalb qilgan va qulay investitsion muhit yaratgan davlatlar iqtisodiy o'sish darajasini oshirishga erishmoqda.

Investitsiya keng ma'noga ega iqtisodiy tushuncha hisoblanadi. "Investitsiya" so'zi lotinchada "kiyinmoq" ma'nosini anglatib, mamlakat ichida yoki chet elda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital kiritishni anglatadi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiyalar quyidagicha ta'riflanadi: "Investitsiyalar — tadbirkorlik faoliyati yoki boshqa qonuniy faoliyat turlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar, ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk huquqlari va reinvestitsiyalar."

Shuningdek, mazkur qonunda investitsiyaga bog'liq atamalar ham ta'riflanadi. Jumladan:

- Investor — investitsiya loyihalariga o'z mablag'larini kiritadigan yoki boshqa investitsiya resurslarini jalb qiluvchi sub'ekt;
- Investitsiya majburiyati — investitsiya loyihasidagi maqsadlarga erishish uchun investor zimmasiga oladigan majburiyat;
- Investitsiya faoliyati — investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq sub'ektlar harakati;
- Investitsiya faoliyati ishtirokchisi — investoring topshiriqlarini bajaruvchi sub'ekt;
- Reinvestitsiya — investitsiyalardan olingan daromadni, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar va boshqa shakllardagi mukofotlarni qayta investitsiyalash.

O'zbekiston-2030 strategiyasi mamlakatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan. Bu strategiyada kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, investitsion faoliytni oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Strategiyada kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynashi va

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

investitsion faollikni rag'batlantirish orqali mamlakatni global bozorga integratsiyalashish imkoniyatlari yaratilishi ta'kidlangan. O'zbekiston-2030 strategiyasining muvaffaqiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va ularning investitsion faolligini oshirishga bog'liq.

Kichik va o'rta biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy omili hisoblanadi. U ish o'rnlari yaratishda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda muhim rol o'yndaydi. Biroq, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va birokratik to'siqlarni bartaraf etish zarur. O'zbekiston-2030 strategiyasi ushbu masalalarga e'tibor qaratib, kichik va o'rta biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Strategiyada investitsion muhitni yaxshilash, moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish va birokratik to'siqlarni bartaraf etish, shuningdek, tadbirkorlik mahoratini oshirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Investitsion faollikni oshirish kichik va o'rta biznesni moliyaviy jihatdan mustahkamlash, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport potentsialini rivojlantirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, kichik va o'rta biznesning raqobatbardoshligini oshirishga va global bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. O'zbekiston-2030 strategiyasi investitsion faollikni rag'batlantirish maqsadida xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda investitsion faollikni oshirish uchun quyidagi choralarning amalga oshirilishi zarur:

- Moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish: Kreditlarga kirishni osonlashtirish, grantlar dasturlarini ishlab chiqish, venture kapital va crowdfunding platformalarini rivojlantirish
- Investitsion muhitni yaxshilash: Soliq siyosatini yaxshilash, korrupsiyani kamaytirish, qonun ustuvorligini ta'minlash
- Birokratik to'siqlarni bartaraf etish: Huquqiy va regulyativ muhitni soddallashtirish, litsenziya olish va ruxsatnomalarni olish jarayonlarini soddallashtirish
- Tadbirkorlik mahoratini oshirish: Biznesni boshqarish va marketing sohasida malakali mutaxassislarini tayyorlash, biznesni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va dasturlarni tashkil etish
- Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish, texnologik parklar va inkubatorlarni yaratish
- Eksportni rag'batlantirish: Eksportga qaratilgan bizneslar uchun qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, xorijiy bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish

O'zbekiston-2030 strategiyasi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va investitsion faollikni oshirish bo'yicha aniq yo'naliшlar va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu strategiya doirasida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli kuchaytirilib, investitsion muhit yanada yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda investitsion faollikni oshirish O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishi uchun juda muhimdir. O'zbekiston-2030 strategiyasi bu sohada katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu strategiya doirasida kerakli siyosiy iroda va samarali chora-tadbirlar orqali mamlakatimizda kichik va

o'rta biznesni rivojlantirish va investitsion faollikni oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish mumkin.

### References:

1. Bekmurodov, A. A. (2022). *Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi nashriyoti.
2. Mirkasimov, A., Abdullaev, M., & Khodjiev, F. (2021). *Investitsion siyosat va iqtisodiy rivojlanish yo'llari*. Toshkent: Sharq Nashriyoti.
3. Hodjaev, B. (2019). *O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari*. Toshkent: Adolat.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalari va qarorlari (2020-2022).
5. Haydarov, U. (2022). *Investitsion rivojlanishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari*. Toshkent: Iqtisodiyot fanlari nashriyoti.